



“Gold Talents”

ikki bosqichli xalqaro televizion tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha nizom

I. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekistonda ilk bor xalqaro formatda bo‘lib o‘tadigan **“Gold Talents” xalqaro televizion tanlovi** O‘zbekiston Respublikasining **“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”**gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston – 2030”** strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** 2023-yil 26-maydagi PF–79-son Farmonlariga asosan mamlakatimizda madaniyat va san‘at sohasiga berilayotgan imkoniyatlar, yaratilayotgan sharoitlar natijasi o‘laroq, iqtidorli yoshlarni kashf etish va ularning ijodini keng ommaga targ‘ib etish maqsadida o‘tkaziladi.

II. Televizion tanlovni tashkil etish va o‘tkazish

2. Xalqaro televizion tanlov (keyingi o‘rinlarda – xalqaro tanlov) **“Mening yurtim”** telekanalining mualliflik tanlovi hisoblanadi.

3. Xalqaro tanlov **“Mening yurtim”** hamda **“Renessans”** telekanali, Ispaniya davlatining **Fiestalonia milenio** xalqaro tashkiloti, O‘zbekiston Respublikasi **Madaniyat** vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta‘limi** vazirligi, **Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar** vazirligi, **Yoshlar ishlari** agentligi, **Toshkent shahar** hokimligi, O‘zbekiston **kompozitorlari** va **bastakorlari** uyushmasi, O‘zbekistonning tegishli xorijdagi **vakolatxonalari**, Ozarbayjon Respublikasining xalqaro **yoshlar markazi** hamda **Ozarbayjon milliy konservatoriyasi, Turkiya davlat universiteti**, shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘tkaziladi.

4. Xalqaro tanlovda **3** yoshdan **70** yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston va boshqa xorijiy davlatlarning *bolalar musiqa va san‘at maktablari*, *“Kelajak markazi” bolalar maktablari*, *umumta‘lim muassasalari o‘quvchilari*, *o‘qituvchilari*, *oliy ta‘lim muassasalari talabalari* hamda *madaniyat va san‘atga qiziquvchi barcha iqtidorli yoshlar*, *ijodkorlar (yakka va jamoaviy tarzda)* ishtirok etadi.

5. Xalqaro tanlov **2026-yilning 24-27 aprel** kunlari Toshkent shahrida **ikki** bosqichda o‘tkaziladi:

– **Birinchi bosqichda** barcha ishtirokchilar **24-27** aprel kunlari ishtirok etadi va ular orasidan 1-o‘rinni qo‘lga kiritganlari hakamlar hay‘ati tomonidan 2-bosqichga tavsiya etiladi. 2-3 o‘rinni qo‘lga kiritganlar tegishligicha taqdirlanadi.

– **Ikkinchi bosqichda** hakamlar tomonidan tavsiya etilgan (1-o‘rin g‘oliblari) ishtirokchilar ishtirok etadi. Har bir ishtirokchilarning natijasi hakamlar hay‘ati qarori bilan rasmiylashtiriladi.

– Xalqaro tanlovning 2-bosqichi tashkiliy qo‘mitaning qaroriga ko‘ra may oyining boshida o‘tkaziladi. 2-bosqichga yo‘llanma olganlarga tayyorgarlik jarayonlari uchun vaqt beriladi.

– Xalqaro tanlov televizion ko‘rinishda o‘tkaziladi. Bunda, ishtirokchilarning ijodiy chiqishlari efirga uzatiladi.

Xalqaro tanlovga arizalar **2026-yilning 24-martidan 23-apreliga** qadar tashkiliy qo‘mita tomonidan quyidagi **telegram bot** orqali qabul qilinadi.

@newtalents_24

Telefonlar:

+99895-008-59-29

+99895-008-69-29

6. Xalqaro tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy masalalar “**Renessans**” telekanali qoshidagi **Ijodiy ishchi guruh** tomonidan amalga oshiriladi.

7. Xalqaro tanlov mobaynida **#MenGoldTalentsgaQatnashaman** xalqaro **chelendj** o‘tkaziladi. Bir nafar chelendj g‘olibi Tashkiliy qo‘mita tomonidan taqdirlash marosimida maxsus **telefon** bilan taqdirlanadi.

8. Tashkiliy qo‘mita tomonidan tanlovni targ‘ibot ishlarida faol ishtirok etgan ta‘lim muassasalari orasidan “**Eng faol ta‘lim muassasasi**” mukofotiga **1ta ta‘lim muassasasi** nomzodi aniqlanadi. Ushbu ta‘lim muassasasi faoliyati “**Renessans**” hamda “**Mening yurtim**” telekanali tomonidan namunali deb keng yoritiladi hamda maxsus diplom bilan taqdirlanadi.

9. Xalqaro tanlov mobaynida ishtirokchilar va ularning o‘qituvchilari uchun xalqaro “**Mahorat darslari**” ijodiy mashg‘ulotlari o‘tkaziladi.

III. Tanlov yo‘nalishlari va ijro vaqti

- Fortepiano (*ijro vaqti 7 minut*);
- Torli cholg‘ular (*ijro vaqti 7 minut*);
- Estrada cholg‘u ijrochiligi (*ijro vaqti 5 minut*);
- Damli va zarbli cholg‘ular (*ijro vaqti 5 minut*);
- Xalq cholg‘ulari (*ijro vaqti 5 minut*);
- An’anaviy cholg‘u ijrochiligi (*ijro vaqti 6 minut*);
- Akademik xonandalik (*ijro vaqti 5 minut*);
- Estrada xonandaligi (*ijro vaqti 5 minut*);
- An’anaviy xonandalik (*ijro vaqti 6 minut*);
- Baxshichilik, jirov (*ijro vaqti 5 minut*);
- Xoreografiya (*ijro vaqti 6 minut*);
- Teatr san’ati (*ijro vaqti 7 minut*);
- Tasviriy san’at (ijodiy ish chizishga 4 soatgacha vaqt beriladi);
- Folklor ijrochiligi (*ijro vaqti 8 minut*);
- Xor (*ijro vaqti 6 minut*);
- Amaliy san’at (*ijodiy ish yaratishga 4 soat vaqt beriladi*);
- Sheriyat (*sher o‘qishga har bir ishtirokchiga 8 munitdan vaqt beriladi*).

10. Ishtirokchilar o‘z ijrolarini yuqorida belgilangan vaqtdan chiqmagan holda o‘zlarining ihtiyoriga ko‘ra, **1 ta yoki 2 ta** eng yaxshi asarni tanlab ijro qiladi.

11. Xalqaro tanlovning 2-bosqichiga yo‘llanma olganlarga 1-bosqichdagi asarlarini qayta ijro qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

12. **Tasviriy san‘at** yo‘nalishi ishtirokchilari tanlov mobaynida “**Yangi O‘zbekiston**” mavzusida ijodiy ish yaratadilar. Buning uchun ishtirokchilarga 4 soatga qadar vaqt ajratiladi. (*Misol uchun: Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar, yangilanishlarni tasvirlash mumkin. Bu ishtirokchining fantaziyasiga bog‘liq bo‘ladi*)

13. **Amaliy san‘at** yo‘nalishi ishtirokchilari erkin mavzuda ijodiy ish yaratadilar. Buning uchun ishtirokchilarga 4 soat vaqt ajratiladi.

Xorijlik ishtirokchilar tasviriy san‘at va amaliy san‘at yo‘nalishi bo‘yicha erkin mavzuda belgilangan vaqtda ijodiy ish yaratadilar.

14. Jamoaviy (ansambl) tarzda ishtirokchilar soni **16** nafargachani tashkil etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

15. Ishtirokchilar **yoshiga ko‘ra** quyidagi guruhga bo‘linadi:

Birinchi guruh – 3-6 yosh;

Ikkinchi guruh – 7-9 yosh;

Uchinchi guruh – 10-12 yosh;

To‘rtinchi guruh – 13-15 yosh;

Beshinchi guruh – 16-19 yosh;

Oltinchi guruh – 20-25 yosh;

Yettinchi guruh – 26-29 yosh;

Sakkizinchi guruh – 30 yosh va undan yuqori.

IV. Ishtirokchilarni baholash va nominatsiyalar

16. Xalqaro tanlov ishtirokchilarini baholash har bir yosh toifasida shaffof tarzda o‘tkaziladi.

Buning uchun har bir yo‘nalish bo‘yicha xalqaro darajada sohaning **yetakchi mutaxassislari, dotsent, professorlar, O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston xalq xofizi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar** hamda **taniqli san‘at namoyondalari** jalb qilinadi.

17. Ishtirokchilar 25 ballik tizimda baholanadi. Umumiy ballar hakamlar hay‘atini ballari hisobiga aniqlanadi.

18. Hakamlar hay‘atining qarori qat‘iy hisoblanadi va qayta ko‘rib chiqilmaydi.

19. **Birinchi bosqichda** ishtirokchilar orasidan 1,2,3, o‘rin g‘oliblari aniqlanadi va ular diplom, medal, sertifikat, yoshlar uchun maxsus sovg‘alar bilan taqdirlanadi. Ishtirokchilarning ota-onalari, o‘qituvchilari, ta‘lim muassasa rahbarlari ham tashakkurnoma bilan taqdirlanadi. Bunda, ikkinchi bosqichga faqat 1-o‘rinni olganlarga yo‘llanma beriladi.

20. **Ikkinchi bosqichda** ishtirokchilar orasidan hakamlar hay‘atining qaroriga ko‘ra:

Gran-pri sovrindorlari (*statuetka, tv sertifikati, xalqaro diplom*);

Maxsus nominatsiya g‘oliblari (*10 ta yo‘nalishda*);

“Gold Talents” xalqaro stipendiyasi g‘oliblari (*jami 2 nafar - “1 nafar maktab yoshidagi ishtirokchiga hamda 1 nafar oliy ta’lim muassasasi yoshidagi ishtirokchiga” beriladi*). Mazkur stipendiya har bir nomzodga **3 oy mobaynida 500** ming so‘mdan etib belgilanadi.

21. Nogironligi bo‘lgan ishtirokchilarga 50 foizlik chegirma taqdim etiladi.

22. **Nominatsiyalar** quyidagicha belgilanadi.

- Eng yaxshi **fortepiano** ijrochisi
- Eng yaxshi **maqom** ijrochisi
- Eng yaxshi **mohir musiqa ijrochisi**
- Eng yaxshi **estrada xonandasi**
- Eng yaxshi **akademik xonandasi**
- Eng yaxshi **raqs** ijrochisi
- Eng yaxshi **rassom**
- Eng yaxshi **hunarmand**
- Eng yaxshi **aktyor**
- Eng yaxshi **shoir**(shoira)

23. Ushbu nominatsiyalar barcha hakamlar hay’atining umumiy ovoziga asosan aniqlanadi. Bunda, hakamlar ayrim nominatsiyalarga ijro mahoratidan kelib chiqib, nomzod tavsiya etmaslik huquqiga ega ham hisoblanadi.

24. Xalqaro tanlovning Gran-pri sovrindorlariga **“Renessans”** telekanalining **Yangi tong** dasturida chiqishi uchun bir martalik maxsus sertifikat beriladi.

V. Xalqaro tanlovni moliyalashtirish tartibi

25. Xalqaro tanlovni o‘tkazishda qator tashabbuskor homiylar ham jalb etilishi mumkin.

Xalqaro tanlovda ishtirokchilarning ishtiroki uchun quyidagi miqdordagi badal to‘lovi olinadi.

yakka ishtirokchi uchun - 800 ming so‘m;

duet - har bir ishtirokchi uchun 500 ming so‘m;

jamoalari (ansambl)ning har bir ishtirokchisi uchun 450 ming so‘mdan.

To‘lovlar: 5614 6819 1273 6976 – Uzcard - Asliddin Akmalov – ga yuboriladi.

to‘lov o‘tganligi bo‘yicha maxsus chek nusxasi @newtalents_24 botga yoki telegramga yuboriladi.

Xorijlik ishtirokchilar uchun badal to‘lovi **100 AQSH dollarini** tashkil etadi.

26. To‘lovlar xalqaro tanlovni tashkil etish, ishtirokchilar ijodini tasvirga olish, efirga berish, ishtirokchilarni rag‘batlantirish diplom, medallar, statuetkalar, kuboklar, maxsus stipendiya berish, bannerlar, reklama roliklari tayyorlashga, Ishchi guruhi va hakamlar hay’ati ish haqi, ovqatlanishi, yo‘lhaqi, mehmonxona xarajatlari, sahna dekoratsiyalari xarajatlari, ekran havozalari xarajatlari va boshqa ko‘zda tutilmagan xarajatlar uchun tashkiliy qo‘mita tomonidan yo‘naltiriladi.

27. Xalqaro tanlovda ishtirok etish bilan bog‘liq barcha xarajatlar yuborayotgan tashkilotlar (*ta’lim muassasalari va h.k*), ishtirokchilar, homiyilar hamda ota-onalar tomonidan qoplanadi.

VI. Xalqaro tanlovni yoritish masalalari

28. Xalqaro tanlovning barcha jarayonlari Ishchi guruhi (Piar menedjer) tomonidan tayyorlanadigan **“Gold Talents”** televizion ko‘rsatuvida **“Mening yurtim”** hamda **“Renessans”** telekanali orqali efirga uzatiladi.

29. Bundan tashqari barcha jarayonlar bilan bog‘liq **ko‘rsatuvlar, eshittirishlar, intervyular, kunlik tezkor xabarnomalar** Mamlakatimiz va xalqaro maydonda keng yoritiladi.

VII. Yakuniy qoidalar

30. Xalqaro tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar Tashkiliy qo‘mita tomonidan muvofiqlashtiriladi.

31. Mazkur Xalqaro tanlov nizomidagi loyihalar, g‘oyalar, so‘zlar, jumlar, atama so‘zlardan turli tashkilotlar tomonidan ko‘chirish xalqaro huquq normalariga asosan qat’iyan taqiqlanadi.

Mazkur nizom to‘liq yangi tahrirda ishlab chiqildi va 3-nusxada tasdiqlandi.

23.03.2026-yil

Murojaat uchun tashkiliy qo‘mita telefonlari

+998 95-008-59-29

+998 95-008-69-29

Hamkor tashkilotlar:

